
TOSHLOQ TUMANIDA SEKTOR RAHBARLARINING SAYYOR QABULI BO‘LIB O‘TDI

Bugun 2-sektor hududidagi “Chuqurqishloq” mahallasida tuman sektor rahbarlarining fuqarolar sayyor qabuli o‘tkazildi. Qabulda tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, tuman prokurori Shuxratjon Musayev hamda tuman IIB boshlig‘i Avazbek Kattabekovlar fuqarolar murojaatlarini tingladilar.

Qabul davomida 25 nafarga yaqin fuqarolar murojaatlari sektor rahbarlari hamda mas‘ullar ishtirokida ko‘rib chiqildi.

Fuqarolarning murojaati asosan yo‘llarni ta‘mirlash, toza ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash, uy-joy bilan ta‘minlash, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirish, ishga joylashish kabi muammolar haqida bo‘ldi.

Joyida hal etish imkoni bo‘lgan murojaatlar yuzasidan talablar qanoatlantirildi. Atroflicha o‘rganishni taqozo etadigan dolzarb masalalarni hal etish yuzasidan yechimini topish vakolatiga ega bo‘lgan korxonalar, tashkilotlar, muassasalarga muddat belgilanib, tegishli organlar tomonidan nazoratga olingan holda topshiriqlar berildi.

2024-05-08 17:58:39